[11]. Baratov D.D. “Development of engineering creativity and project activity in educational and practical classes”, News of the National University of Uzbekistan – Scientific Bulletin. Tashkent, 2023, 1/5-issue, p. 67–71.

[12]. Baratov D.D. Pedagogical issues of the formation of professional and creative competence in students. Teacher is also an endless education – Scientific and methodological journal. Nukus, 2021, Issue 6, p. 16–21.

[13]. Baratov D.D. “Development of creative competence in preparing students for innovative engineering activities”, Teacher also educates – Scientific and methodological journal. Nukus, 2022, Issue 6/2, p. 113–116.

[14]. Baratov D.D. “Methodology of students’ creative competence development”. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 2022, Issue 3, p. 68–73.

[15]. Baratov D.D. “Development of Creative Competence in the Process of Preparing Students for Innovative Engineering Activity”. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Sciences. 2022, № 3 (August), p. 36–38.

[16]. Baratov D.D. Development mechanisms of preparing students for innovative activities in technical higher education institutions. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. 2023, Issue 11 (May), p. 98–100.

[17]. Baratov D.D. Content and pedagogical conditions of development of research skills of engineering students based on innovation approach. Nanotechnology Perceptions. ISSN 1660-6795. URL: https://nano-ntp.com/index.php /nano/article/view/3539.

Davronov Nurzod Ismoilovich (Buxoro davlat Pedagogika instituti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi professori, p.f.f.d. (PhD); ORCID:-https://orcid.org/0000-0002-0487-0973; E-mail: davronovnurzod@buxdpi.uz; dnurzod@gmail.ru)

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA SALOMATLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA IMKONIYATLARI

Annotatsiya*. Mazkur maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida salomatlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Unda salomatlik madaniyatining mazmuni, uning kasbiy ahamiyati hamda uni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va talabalarning motivatsiyasini oshirishga oid tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *salomatlik madaniyati, jismoniy tarbiya, pedagogik shart-sharoitlar, sog‘lom turmush tarzi.*

Давронов Нурзод Исмоилович (профессор кафедры теории и методики физической культуры Бухарского государственного педагогического института; https://orcid.org/0000-0002-0487-0973; davronovnurzod@buxdpi.uz; dnurzod@gmail.ru)

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ЗДОРОВЬЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *В данной статье анализируются педагогические условия и возможности развития культуры здоровья у будущих учителей физической культуры. Раскрывается содержание культуры здоровья, её профессиональное значение, а также эффективные педагогические подходы, способствующие её формированию. Также представлены рекомендации по формированию здорового образа жизни в образовательном процессе и повышению мотивации студентов.*

Ключевые слова: *культура здоровья, физическая культура, педагогические условия, здоровый образ жизни.*

Davronov Nurzod Ismoilovich (Professor, Department of Theory and Methodology of Physical Culture, Bukhara State Pedagogical Institute; https://orcid.org/0000-0002-0487-0973; davronovnurzod@buxdpi.uz; dnurzod@gmail.ru)

PEDAGOGICAL CONDITIONS AND OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING HEALTH CULTURE AMONG FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Annotation. *This article analyzes the pedagogical conditions and opportunities for developing a health culture among future physical education teachers. It reveals the content of health culture, its professional significance, as well as effective pedagogical approaches that contribute to its formation. In addition, recommendations are provided for promoting a healthy lifestyle in the educational process and increasing students’ motivation.*


Keywords: *health culture, physical education, pedagogical conditions, healthy lifestyle.*

Kirish (Introduction). Bugungi kunda jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yosh avlod salomatligini mustahkamlash va ularning jismoniy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida salomatlik madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular nafaqat o‘z salomatligini asrash, balki o‘quvchilarda ham sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston

Respublikasida mazkur yo‘nalishda qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099- hamda 2019-yil 29-oktabrdagi PF-5853-farmoni yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish hamda ta’lim tizimida sifatni oshirishga qaratilgan muhim vazifalarni belgilab berdi. Ushbu hujjatlar bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zaruratini kuchaytirdi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida salomatlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlari hamda imkoniyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan ushbu masalalar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida salomatlik madaniyatini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab etuvchi dolzarb masalalardan biri sifatida qaraladi. Salomatlik madaniyati shaxsning nafaqat jismoniy holati, balki uning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ongli munosabati, sog‘liqni saqlash va mustahkamlashga yo‘naltirilgan faoliyati, shuningdek, ijtimoiy va kasbiy mas’uliyatini ham o‘zida mujassam etadi. Shu bois, uni shakllantirish jarayoni alohida pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqilishi lozim. Pedagogik nuqtayi nazardan, mazkur jarayonning samaradorligi, avvalo, ta’lim mazmunining ilmiy asoslanganligi va uning amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘liqligiga bog‘liqdir. Oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun salomatlik madaniyatini rivojlantirish faqatgina alohida fan yoki mavzular doirasida emas, balki butun o‘quv jarayoniga integratsiyalashgan holda tashkil etilishi zarur. Bu esa fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish, nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan mustahkamlash hamda talabalarning mustaqil faoliyatini rag‘batlantirish orqali amalga oshiriladi. Mazkur tadqiqotda salomatlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Xususan, ta’lim jarayonining maqsadga yo‘naltirilganligi, uning mazmuniy boyligi, qo‘llanilayotgan metod va vositalarning zamonaviyligi hamda ta’lim muhitining sog‘lomlashtiruvchi xususiyatga ega bo‘lishi asosiy omillar sifatida belgilandi. Shu bilan birga, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning qiziqish va ehtiyojlariga mos pedagogik yondashuvlarni tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida sog‘lomlik madaniyati ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosiy maqsadi ularni o‘z salomatligini ongli ravishda saqlash va mustahkamlashga, shuningdek, kelgusida o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga kasbiy jihatdan tayyorlashdan iboratdir. Ushbu jarayon natijasida jismoniy tarbiya sohasida nafaqat yuqori malakali, balki sog‘lom hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lgan mutaxassislar shakllanadi. Ular o‘z shaxsiy namunasi, kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalari orqali yosh avlodning jismoniy hamda ruhiy salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Zamonaviy ijtimoiy sharoitda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ommalashtirishning dolzarbligi ortib bormoqda. Bu jarayonda jismoniy tarbiya o‘qituvchisining roli alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat jismoniy mashqlarni o‘rgatuvchi, balki sog‘lom turmush tarsini targ‘ib etuvchi pedagogik subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimida sog‘lomlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish zarur hisoblanadi.



1-rasm. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda pedagogik tamoyillar.

Bo‘lajak mutaxassislarda sog‘lomlik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari bir qator ilmiy yondashuvlarga tayanadi. Avvalo, sog‘lom turmush tarzining falsafiy, pedagogik, biologik va ijtimoiy maz-

munini integrativ tarzda tushunish muhimdir. Bu yondashuv sog‘liqni shaxsning yaxlit holati sifatida ko‘rib chiqib, uning jismoniy, psixologik va ijtimoiy komponentlarini o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda pedagogik tamoyillar (1-rasm).

Yuqoridagilar asosiy metodologik yo‘nalishlar sifatida xizmat qiladi. Mazkur jarayonda jismoniy faoliyatning organizmga fiziologik va psixologik ta’sirini chuqur o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jismoniy mashqlarning yurak-qon tomir, nafas olish va nerv tizimlariga ijobiy ta’siri, shuningdek, stressga chidamlilikni oshirish va ruhiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni ilmiy asoslangan holda o‘zlashtirilishi lozim. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarda jismoniy yuklamalarni to‘g‘ri rejalashtirish va individual yondashuv asosida qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Sog‘lomlik madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida to‘g‘ri ovqatlanish tamoyillarini o‘zlashtirish ham alohida o‘rin tutadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining biologik qiymati, ularning organizm metabolizmiga ta’siri, ratsional ovqatlanish rejimi va muvozanatli ovqatlanish prinsiplari bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun zarur kasbiy bilimlar tizimini tashkil etadi. Ushbu bilimlar sog‘lom turmush tarzini ilmiy asosda tashkil etish va targ‘ib qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, sog‘lomlikni saqlash va mustahkamlashning zamonaviy usullari ham nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilishi lozim. Bunda jismoniy va ruhiy muvozanatni ta’minlovchi vositalar – nafas olish mashqlari, relaksatsiya, meditatsiya, yoga hamda organizmni chiniqtirish usullari muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodlar sog‘lomlik madaniyatini shakllantirishda qo‘shimcha sog‘lomlashtiruvchi vosita sifatida qo‘llanilib, shaxsning umumiy funksional holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituv-chilarida sog‘lomlik madaniyati ko‘nikmalarini rivojlantirish ko‘p qirrali, integrativ va uzluksiz pedagogik jarayon bo‘lib, u nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va qadriyatlar tizimini uyg‘unlashtirish asosida amalga oshiriladi. Bu esa kelajakda sog‘lom, faol va kasbiy jihatdan yetuk mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Pedagogik tajriba jarayonida interfaol metodlardan keng foydalanildi. Jumladan, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, guruhli va juftlikda ishlash, trening mashg‘ulotlari, loyihaviy faoliyat hamda refleksiv tahlil usullari orqali talabalarning faolligi oshirildi. Bundan tashqari, sog‘lom turmush tarziga oid bilimlarni mustahkamlash maqsadida amaliy mashg‘ulotlar, sport-sog‘lomlashtirish tadbirlari va mustaqil topshiriqlar tizimli ravishda tashkil etildi. Bu esa talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirishga xizmat qildi. Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida salomatlik madaniyatining shakllanish darajasi sezilarli darajada oshgan. Xususan, talabalarning sog‘lom turmush tarziga oid bilimlari kengaygan, jismoniy faollikka bo‘lgan ehtiyoji ortgan hamda o‘z salomatligiga nisbatan mas’uliyatli munosabati shakllangan. Shuningdek, ularda kasbiy motivatsiya kuchayib, kelajakdagi pedagogik faoliyatida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishga tayyorlik darajasi yuqorilagan. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, salomatlik madaniyatini rivojlantirish samaradorligi pedagogik shart-sharoitlarning to‘g‘ri tanlanishi va ularning izchil amalga oshirilishiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, ta’lim jarayonida sog‘lomlashtiruvchi muhitni yaratish, innovatsion metodlarni qo‘llash hamda talabalarning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida salomatlik madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks pedagogik tizimni joriy etish zarurati yuzaga keladi. Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida salomatlik madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida sog‘lomlik madaniyati ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon ularning shaxsiy salomatligini saqlash va mustahkamlash bilan birga, kelajakda o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini ta’minlaydi. Shu jihatdan, sog‘lomlik madaniyati nafaqat individual, balki ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo‘lgan kompleks tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lomlik madaniyatini shakllantirish jarayoni tizimli, uzluksiz va integrativ yondashuv asosida tashkil etilishi lozim. Bunda nazariy bilimlar (sog‘lom turmush tarzi, jismoniy faoliyat, ovqatlanish asoslari), amaliy ko‘nikmalar hamda sog‘lomlashtiruvchi faoliyat turlarining uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, pedagogik jarayonda talabalarning motivatsiyasi, individual xususiyatlari va kasbiy yo‘nalganligini hisobga olish samaradorlikni oshiradi. Olib borilgan nazariy tahlillar va amaliy yondashuvlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida sog‘lomlik madaniyatini rivojlantirish ularning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida,

sog‘lom, faol va barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiluvchi pedagogik tizimning samaradorligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng joriy etish va ommaviy sportni rivojlantirish to‘g‘risida”gi 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-farmoni.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-oktabrdagi PF-5853-farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.

(3). G‘afurov A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2015.

(4). Abdullayeva M. Pedagogika asoslari. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2018.

(5). Ismailov Sh. Sog‘lom turmush tarzi va jismoniy tarbiya. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2020.

(6). Qodirov B. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi kasbiy tayyorgarligi. Toshkent, TDPU nashriyoti, 2019.

(7). Sodiqova N. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. Toshkent, “Fan”, 2021.

Kamilova Sabohat (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universtiteti Telekomunikatsiya texnologiyalari fakulteti “Ma’lumotlar uzatish tarmoqlari va tizimlari” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi; E-mail: sabohatkamilova113@gmail.com),

Ro‘zmetova Shahlo (“Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta’limi” yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabasi; E-mail: shahlorozmetova2004@gmail.com)

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA “INFORMATIKA” FANINI O‘QITISHDA GAMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada informatika fanini o‘qitishda gamifikatsiya vositalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish usullari yoritilgan. Gamifikatsiya asosidagi innovatsion metodlar va zamonaviy raqamli platformalar tahlil qilinib, ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, gamifikatsiyalangan dars modelining o‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasiga ta’siri ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *gamifikatsiya, informatika, raqamli ta’lim, motivatsiya, interaktiv metodlar, o‘quvchi faolligi.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ГЕЙМИФИКАЦИИ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФОРМАТИКИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются способы повышения интереса учащихся к предмету информатики посредством использования инструментов геймификации в процессе обучения. Проанализированы инновационные методы, основанные на геймификации, а также современные цифровые платформы, и обоснована их эффективность в образовательном процессе. Кроме того, показано влияние модели геймифицированного урока на активность и мотивацию учащихся.*

Ключевые слова*: геймификация, информатика, цифровое образование, мотивация, интерактивные методы, активность учащихся.*

THE USE OF GAMIFICATION TECHNOLOGIES IN TEACHING INFORMATICS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Annotation. *This article discusses methods of increasing students’ interest in Informatics through the use of gamification tools in the teaching process. Innovative methods based on gamification and modern digital platforms are analyzed, and their effectiveness in the educational process is substantiated. Furthermore, the impact of a gamified lesson model on students’ activity and motivation is highlighted.*

Keywords: *gamification, informatics, digital education, motivation, interactive methods, student engagement.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish masalasi muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, informatika fanida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish jarayonida o‘quvchilarning passivligi va motivatsiyaning yetarli emasligi kuzatiladi. Bu holat ta’lim jarayonida yangi va samarali yondashuvlarni joriy etishni talab etadi.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida gamifikatsiya vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va bilimlarni mustahkamlashda samarali usullardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Gamifikatsiya elementlari yordamida o‘quv jarayoni o‘yin mexanizmlari bilan boyitilib, o‘quvchilar uchun qiziqarli va interaktiv muhit yaratiladi.

Informatika fanida gamifikatsiyalangan yondashuvlar algoritmik fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonini yanada samarali tashkil etishga imkon beradi.